


Hudning da'vati



15:00 / 09.01.2021 3485

Hud qavmi ichida turib, da'vat qilgan holda:

﴿نُوقَّتْ آلَافًا هُرِّيَعًا هَلْ إِئْمَنُكُمْ أَمْ لَّا أُدْبِعُ مَوْقٍ﴾

«**Ey qavmim, Allohga ibodat qilinglar. Sizlarga Undan o'zga iloh yo'q**», (A'rof surasi, 65-oyat) dedi. Qanday qilib, yaratgan zotga ibodat qilmay, toshlarga ibodat qilasizlar?! Ey qavmim! Bu toshlarni sizlar kechagina yasagan bo'lsangiz va bugun ularga qanday ibodat qilyapsiz? Albatta Alloh sizlarni yaratdi va rizqlantirdi hamda mollaringiz, bolalaringiz, ekinlaringiz va naslingizga baraka berdi. Sizlarni Nuh qavmidan keyin o'rinbosar qildi va jismingizga quvvat berdi. Bu ne'matlarning haqqi, Allohga ibodat qilib, boshqasiga ibodat qilmaslik edi. Albatta, mana bu itga suyak tashlasangiz uyingizdan uzoqlashmaydi va sizga soyadek ergashadi. Biror itni, o'z xo'jayinini tashlab, boshqasiga ketganini ko'rdingizmi? Biror hayvonni toshga ibodat qilganini ko'rdingizmi? Biror hayvonni

butga sajda qilganini ko'rdingizmi? Inson hayvondan ham razilmi? Yoki u hayvondan ham azizmi?

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad